O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

Namangan sh. Istiqlol ko`chasi 57.

2024 - yil 24 - fevral VI-42-10-6-0-K/24 Namangan viloyati hokimligi

Namangan viloyatida reklama obyektlariga tashqi reklamani joylashtirish uchun yig‘imlar miqdorini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 31-avgustdagi 428-son, “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to‘g‘risida” 2020-yil 20-fevraldagi 104-son qarorlariga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Quyidagilar:

Namangan viloyatida tashqi reklama obyektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish uchun yagona oylik yig‘im miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

transport vositalarida (yo‘nalishlardagi avtobuslar bundan mustasno) reklamani joylashtir ish uchun yagona yig‘im miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasiga muvofiq, ommaviy axborot vositalari, tashqi reklama va axborotni tarqatuvchilar reklama uchun ajratilgan efir vaqti, nashr yoki reklama maydoni umumiy oylik hajmining besh foizidan kam bo‘lmagan hajmda ijtimoiy axborotni joylashtirishi shartligi, bunda faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan to‘liq moliyalashtiriladigan va (yoki) o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi ellik foiz hamda undan ortiq bo‘lgan reklama tarqatuvchilar davlat boshqaruvi organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining buyurtmasiga ko‘ra ijtimoiy axborotni bepul joylashtirishi inobatga olinsin.

3. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2020-yil 28-noyabrdagi 74/13-06-

son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalarida rasmiy e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran 15 kundan so‘ng kuchga kiradi.

7. Ushbu qaror ijrosi yuzasidan nazorat olib borish xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abduxamidov zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi raisi **Sh.Abdurazakov**

Xalq deputatlari Namangan viloyat
Kengashining
2024-yil 24-fevraldagi
VI-42-10-6-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyatida tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari) ni joylashtirish bo‘yicha yagona oylik yig‘im

MIQDORLARI

№	Tashqi reklama vositalari turlari	Vazirlar Mahkamasining “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 31.08.2023 y. 428-son qaroriga asosan belgilangan minimal yig‘im, 1 kv.m./so‘m (BHMning 5%)	tashqi reklama vositalari uchun oylik yig‘im miqdori, 1 kv.m./so‘m	
			Namangan shahri, Davlatobod va Yangi Namangan tumanlari uchun	Boshqa tumanlarda va xalqaro ahamiyatga ega barcha avtomobil yo‘llarida
qo‘llanilayotgan kamaytiruvchi koeffitsiyent			**0,8**	**0,6**
1	Bilbordlar	17 000	13 600	10 200
2	Tom qurilmalari, binolarning tom qismlaridagi konstruksiyalar	17 000	13 600	10 200
3	Devor pannosi	17 000	13 600	10 200
qo‘llanilayotgan koeffitsiyent			**3**	**1,5**
4	Elektr ekranlar (video ekranlar, «yuguruvchi satrlar» displeylari va boshqalar) LED ekran	17 000	51 000	25 500
qo‘llanilayotgan koeffitsiyent			**2,0**	**1,5**
5	Yorug‘lik tarqatuvchi barcha tashqi reklama vositalari	17000	34 000	25 500
qo‘llanilayotgan koeffitsiyent			**1,5**	**1,5**
6	Xajmlik xarflar	17000	25 500	25 500

Xalq deputatlari Namangan viloyat
Kengashining
2024-yil 24-fevraldagi
VI-42-10-6-0-K/24-son qaroriga
2-ilova

Namangan viloyatida transport vositalarida (yo‘nalishlardagi avtobuslar bundan mustasno) reklamani joylashtirish uchun belgilangan yagona yig‘im

MIQDORI

№	Transport vositalarining toifalari	O‘lchov birligi	BHMga nisbatan
1.	Yengil avtomobillar uchun 1 yillik to‘lov	dona	1,5 baravari miqdorida
2.	Yuk avtomobillari uchun 1 yillik to‘lov	dona	3 baravari miqdorida